Milliy moliya bozorini rivojlantirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar .....	824
<b>Burxanov A. U.</b> , i.f.d., professor; <b>Muratov Amir Timur ug'li</b> , talaba	
Iqtisodiyotda yashil innovatsiyalarni joriy etishni konseptual asoslari .....	829
<b>Ruzibayeva Nargiza Hakimovna</b> , kafedra dotsenti	
Цифровизация страховых претензий является основным механизмом развития страховой отрасли .....	835
<b>Узакова Камола Бехзодовна</b> , ассистент кафедры	
O'zbekiston va MDH mamlakatlari soliq tizimining qiyosiy tahlili .....	839
<b>Bobomurotova Manzura Panji qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Soliq ma'muriyatchiligi tizimida samarali soliq nazoratini tashkil etish masalalari .....	845
<b>Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li</b> , <b>Bobomurotova Manzura Panji qizi</b> , mustaqil tadqiqotchilar	
Banklarda aktivlar portfellarining zamonaviy holati .....	851
<b>Murodova Mohigul Chori qizi</b> , katta o'qituvchi	
Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarining o'quv faoliyatida o'zini o'zi tashkil etishini rivojlantirish muammosini organishning nazariy asoslari .....	855
<b>Otajonova Maftuna Sultonmurodovna</b> , tayanch doktorant	
Kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish .....	859
<b>Ustadjalilova Xurshida Aliyevna</b> , p. f. n.	
Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb etish innovatsion taraqqiyot omili sifatida .....	863
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b> , katta o'qituvchi	
Paxta-to'qimachilik klasterlari mahsulotlari eksportini motivatsiyalash mexanizmi .....	868
<b>Mansurov Saidxo'ja Kamalovich</b> , tayanch doktorant	
O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchiligini boshqarishning hozirgi zamon muammolari .....	875
<b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi	





Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions.....	879
<b>Ergasheva Malikakhon</b> , Independent researcher	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida.....	884
<b>Amanov Otabek Amankulovich</b>	
Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida.....	888
<b>Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Nodavlat notijoart tashkilotlarida maqsadli tushumlarga doir ishchi schotlarni takomillashtirish.....	893
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b> , PhD	
Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish.....	897
<b>Saidaxmedova Nodira Ilxamovna</b> , DsC	
Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования.....	902
<b>Bokhodir Isroilov</b> , Doctor of Economics, <b>Boburshokh Ibragimov</b> , PhD	
Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili.....	909
<b>Raximova Shaxlo Rajapboyevna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati.....	915
<b>Xo'jaqulova Nigora Rustamovna</b> , PhD	
Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish.....	922
<b>Maxmudov Anvarjon Maxmudovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili.....	930
<b>Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich</b> , dotsent	
Семья и ее роль в воспитании молодежи.....	935
<b>Зайналов Жахонгир Расулович</b> , профессор, <b>Бердикулов Журабек</b> , ассистент	
Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobi, audit va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar.....	938
<b>Nosirov Ilhom Abbosovich</b> , i.f.d., <b>Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний..	943
<b>Холмирзаева Феруза Абдуллаевна</b>	
Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна.....	949
<b>Холбеков Расул Олимович</b> , доктор экономических наук, профессор	
Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari.....	956
<b>Axmedova Nafisa Amriddin qizi</b>	
Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish.....	962
<b>Ruziyeva Shaxlo Raupovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari.....	968
<b>Maxmudova Sharifa Elmurodovna</b> , tayanch doktorant	
Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar.....	972
<b>Xudayarova Xurshida Abdunazarovna</b> , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish.....	978
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida).....	983
<b>Nabiyeva Feruza Odilovna</b> , tayanch doktorant, <b>Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna</b>	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане.....	988
<b>Насиров Дилшод Фарходович</b>	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе.....	992
<b>Кодиров Бобур Абдулбори угли</b> , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari.....	1000
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlarini.....	1005
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich</b>	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili.....	1014
<b>Hakimjon Hakimov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari.....	1019
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish.....	1024
<b>Ilyasova Barno Axmadovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili.....	1028
<b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari.....	1033
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modelashtirish.....	1041
<b>Artikov Ne'matulla Abdusalamovich</b>	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar.....	1046
<b>Yuldashev Feruz Isroil o'g'li</b> , tayanch doktorant	





# O'ZBEKISTONDA AKADEMIK MUSTAQILLIKNI QO'LLAB- QUVVATLASH: 2022-YILGI AFI TADQIQOTIDAN OLINGAN TUSHUNCHALAR VA ILMIY ISTIQBOLLAR

Yuldashev Feruz Isroil o'g'li

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada akademik mustaqillik haqidagi tushunchalar har tomonlama tadqiq qilinib, respublikamiz miqyosida joriy davrda olib borilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratilgan. MDH mamlakatlarida 2022-yilgi Akademik mustaqillik indeksi (AFI) so'rovi natijalaridan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishida O'zbekistondagi akademik mustaqillikka ta'sir etuvchi omillar huquqiy, ijtimoiy va kampus dinamikasini tahliliy o'rganilgan. Taniqli olimlarning akademik mustaqillik haqidagi qarashlari bilan birgalikda tadqiqot intellektual izlanish va fikr erkinligi uchun qulay muhit yaratishda O'zbekistonda mavjud xususiy imkoniyatlarga oydinlik kiritadi.

**Kalit so'zlar:** Akademik mustaqillik, madaniy mulohazalar, Oliy ta'lim tizimi, demokratik qadriyatlar, nutqiy kompetensiya, Jamiyat farovonligi, fikrlar xilma-xilligi, ta'limdagi innovatsiyalar.

**Abstract:** In this article, the concept of academic independence is comprehensively researched, and special attention is paid to the work that is being carried out at the level of our republic. Based on the results of the 2022 Academic Independence Index (AFI) survey in the CIS countries, the research paper analyzed the legal, social and campus dynamics of the factors affecting academic independence in Uzbekistan. Together with the views of famous scientists on academic independence, the research sheds light on the private opportunities available in Uzbekistan to create a favorable environment for intellectual research and freedom of thought.

The article combines AFI survey data and scholarly opinion to highlight Uzbekistan's current position on academic freedom in a broader global context. Based on the current scientific conditions in Uzbekistan, the article mentions specific difficulties and achievements related to academic freedom. Also, the article offers targeted proposals for increasing academic freedom in Uzbekistan, taking into account the benefits that an environment of intellectual openness brings to the development of society.

**Key words:** Academic independence, cultural considerations, higher education system, democratic values, rhetorical competence, community welfare, diversity of opinions, innovations in education.

**Аннотация:** В данной статье всесторонне исследуется понятие академической независимости, а особое внимание уделяется работе, которая проводится на уровне нашей республики. На основе результатов исследования Индекса академической независимости (AFI) 2022 года в странах СНГ в исследовательской работе проанализирована правовая, социальная и университетская динамика факторов, влияющих на академическую независимость в Узбекистане. Вместе со взглядами известных ученых на академическую независимость исследование проливает свет на имеющиеся в Узбекистане частные возможности по созданию благоприятной среды для интеллектуальных исследований и свободы мысли.

В статье объединены данные опроса AFI и мнения ученых, чтобы осветить текущую позицию Узбекистана в отношении академической свободы в более широком глобальном контексте. Основываясь на современных научных условиях в Узбекистане, в статье упоминаются конкретные трудности и достижения, связанные с академической свободой. Также в статье предлагаются адресные предложения по повышению академической свободы в Узбекистане с учетом пользы, которую несет среда интеллектуальной открытости для развития общества.

**Ключевые слова:** Академическая независимость, культурные соображения, система высшего образования, демократические ценности, риторическая компетентность, благосостояние общества, разнообразие мнений, инновации в образовании.

## KIRISH

So'nggi yillarda ilm fanning misli ko'rilmagan rivojlantirilishiga bo'lgan ehtiyoj butun dunyo mamlakatlari uchun tan olingan ahamiyat kasb etmoqda. Buning natijasida ilmiy rivojlanishni qo'llab quvvatlash borasida global miqyosda beayov raqobat muhitini shakllanmoqda. Ushbu raqobat kurashiga mutanosib javob berish maqsadida hukumatimiz tomonidan ilm-fanga qaratilayotgan e'tibor ham millatimizni mazkur global muhitning



raqobatbardosh ishtirokchilaridan biriga aylantirish uchun davomli harakatlari bejizga emas. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning doimiy sodir bo'lishi va kutilmagan global omillarning doimiy ta'siri tufayli jahon iqtisodiyoti kelajakda prognoz qilish murakkab strategik sohalar majmuasi sifatida rivojlanib (Isroilugli, 2022), ta'lim sohasining munosib rivojlanishini taqazo etmoqda. Ta'kidlash joizki, o'tgan 2023-yilning mamlakatimiz prezidenti tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinilinishi mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'li ekanligi e'tirof etilganligi (<https://kun.uz>) jamiyat oldiga muhim vazifalarni qo'ydi. Sohaning bosqichma-bosqich rivojlanishi Oliy ta'limda talabalar qamrovi ko'rsatkichining oldingi davrlarga nisbatan sezilarli oshishi va bu esa o'z navbatida OTMlarda yuqori saviyali pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyojning davomli ravishda yuqorilab borishiga olib kelmoqda. Ushbu tadqiqot orqali mamlakatimizda akademik mustaqillik uchun olib borilayotgan islohotlar va rivojlangan mamlakatlar tajribasida joriy sharoit yuzasidan akademik mustaqillik tushunchasidan nazarda tutiladigan turli masalalar orasidagi tafovutlarni keltirib o'tish hisobga olingan.

## TADQIQOT METODIKASI

Akademik mustaqillik mavzusi bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar taqdim qilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilinganidek, global jamiyatda akademik mustaqillikka nisbatan xavf darajasining o'sib borayotgani (e.g., Kinzelbach et al., 2022) ijtimoiy farovonlikning pasayib borayotganidan dalolat beradi. Aksar rivojlangan mamlakatlarda akademik mustaqillikka qo'yilayotgan siyosiy cheklolarga qaramasdan, O'rta Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekiston miqyosida ilm-fan rivojini qo'llab quvvatlash va innovatsiyalarni rag'batlantirish maqsadida bir qancha qonun hujjatlari imzolanib, bugun amalda o'z natijasini bermoqda. "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-sonli qarori 3- bandiga ko'ra, moliyaviy mustaqillik berilgan davlat OTMlari akademik mustaqillik sohasidagi quyidagi qo'shimcha vakolatlar bilan ta'minlanishi nazarda tutilgan<sup>1</sup>:

- o'quv rejalari, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lim tilini hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish shaklini belgilash;
- bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o'qish davomiyligi muddatlarini belgilash;
- doktoranturada to'lov-kontrakt asosida o'qish qiymatini belgilash, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish;
- doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash;
- magistratura bosqichida ta'limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha qo'sh malakalar, shu jumladan amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish;
- o'zaro kelishuvlar asosida oliy ta'lim muassasalari bilan akademik mobillikni amalga oshirish;
- oliy ta'lim muassasasi va uning tuzilmasidagi ta'lim muassasalari uchun o'z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish;
- ta'lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish.

Ushbu islohotlarni keng miqyosda amalga oshirish va asosan hukumat e'tiborining mazkur harakatlarni rag'batlantirishga qaratilishining isboti sifatida 2023-yilning Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili deb belgilanganligini ko'rish mumkin<sup>2</sup>.


2022-yil dekabr oyiga qadar 179 ta mamlakat va hududiy birliklardan yig'ilgan ushbu ma'lumotlarga ko'ra (Kinzelbach, etc, 2023), akademik erkinlikning cheklanish darajasi insoniyatning 4 milliard aholisidan 50 % dan ko'proq ulushgacha qisqargan. Joriy yilgi erkinlik darajasi 22 mamlakatda oxirgi 10 yil oldingiga qaraganda sezilarli darajada pasaygan bo'lib ilmiy soha vakillari jiddiy ta'sir ostida ekanligi ma'lum qilingan. Ayni vaqtda AFI ko'rsatkichi faqatgina 5 nafar kichik mamlakatlarda yaxshilangani hisobiga, dunyo aholisining 0,7%i akademik farovonlikdan foyda olyapti. Ushbu ma'lumotlarning e'tiborli jihati shundaki, Hindiston, Xitoy, AQSH va Meksika kabi yirik sanoat va YalIM ulushiga ega mamlakatlarning AFI ko'rsatkichi pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda.

1-rasmda<sup>3</sup> ko'rsatilganidek O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida AFI ko'rsatkichi bo'yicha 5-o'rinda turibdi.

1 <https://lex.uz/docs/-5793261>

2 <https://kun.uz/news/2022/12/20/2023-yil-insonga-etibor-va-sifatli-talim-yili-deb-elon-qilindi>

3 <https://academic-freedom-index.net/> manbasi asosida muallif tomonidan tuzildi



0 (Past) 1 (Yuqori)

1-rasm: MDH mamlakatlarida akademik mustaqillik darajasi

№	MDH mamlakatlari	AFI indeksi
1	Moldova	0,82
2	Armaniston	0,71
3	Qirg'iziston	0,54
4	Qozog'iston	0,5
5	O'zbekiston	0,3
6	Rossiya	0,24
7	Ozorbayjon	0,2
8	Tojikiston	0,1
9	Belarusiya	0,03

Qayd etish joizki, akademik mustaqillik va ilmiy soha vakillarining jamiyatdagi roli istiqolning ilk davrlarida juda past ahamiyat kasb etar edi. AFI indeksi 1991-2016-yillar oralig'ida 0,1 koeffitsiyentdan past natijani ko'rsatgan bo'lsa, 2017-yilga kelib shiddatli ravishda 0,16 darajaga yetdi.


Tadqiqotlarimiz davomida ma'lum bo'ldiki, akademik mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj ancha oldin paydo bo'lgan bo'lsa-da, 1900-yildan boshlab global akademik mustaqillik darajasi mamlakatlar kesimida tahlil qilingan. Bugungi MDH mamlakatlari va sobiq sovet ittifoqining hududiy birliklarida esa bu ko'rsatkich 1991-yildan buyon hisoblab kelingan.

2021-yil va 2022-yilda esa muntazam o'sish tendensiyasi (2020-yilgi 0,2 koeffitsiyenti mustasno) bilan mos ravishda 0,22 va 0,3 maksimal nuqtalariga erishdi (2-rasm<sup>4</sup>).

## Uzbekistan

### ACADEMIC FREEDOM INDEX (2021)

0.22



Academic Freedom Index, CC BY 4.0  
<https://academic-freedom-index.net>

## Uzbekistan

### ACADEMIC FREEDOM INDEX (2022) 0.30

Freedom to Research and Teach:	1.86	↑
Academic Exchange and Dissemination:	1.70	↑
Institutional Autonomy:	1.56	↑
Campus Integrity:	2.10	↑
Academic and Cultural Expression:	1.40	↑

Academic Freedom Index, CC BY 4.0  
<https://academic-freedom-index.net>


Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
AFI	0,16	0,19	0,21	0,2	0,22	0,3

2-rasm: O'zbekiston respublikasining AFI indeksi bo'yicha 2017-2022-yilgi o'zgarish dinamikasi

<sup>4</sup> <https://academic-freedom-index.net/> manbasi asosida muallif tomonidan tuzildi



Akademik mustaqillik muhiti shakllantirilgan jamiyatda fuqarolar manfaati oliy maqsad sifatida qaraladi. Aksariyat hollarda zamonaviy boshqaruv mezonlarini ilgari surayotgan hukumatlar o'z oldilarida uzoq muddatli maqsad sifatida belgilab qo'yadigan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda akademik mustaqillikning jamiyat farovonligi uchun quyidagi foydalarni ko'zlashadi:



3-rasm: Akademik mustaqillikdan kutiladigan manfaatlar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi zamonaviy, ilmiy asoslangan ta'lim tizimini barpo etish hisoblanadi. Ushbu maqsadning integral qismi sifatida demokratiyaga intilayotgan jamiyatning rivojlanayotgan ehtiyojlariga moslasha oladigan boshqaruvga asos solishni ko'rsih mumkin.

Mazkur tadqiqot doirasida o'rganilgan adabiyotlar va tahlillar yuzasidan akademik mustaqillik muhitini shakllantirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Siyosatni qo'llab quvvatlash.** Olimlar va jamiyat ziyolilarining joriy ijtimoiy va akademik sharoitni hisobga olgan holda akademik mustaqillikka erishishning ilmiy jihatdan ishonchli nazariyalarini ishlab chiqib hukumatga takliflar berishi mexanizmini shakllantirish ayni muammo.
2. **Jamiyat a'zolarining faolligini oshirish.** Akademik mustaqillikning ahamiyati jamiyat ziyolari uchun muhim bo'lib, uning rivojlanishi ko'proq akademik subyektlarga bog'liq bo'lganligi uchun, unga erishishda va jamoatchilikda uning zarurligini oshirishda olimlar va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha individlar markaziy rol o'ynashadi.
3. **Ta'lim muassasalarining ijtimoiy faolligini oshirish.** Jamiyat a'zolari akademik mustaqillikka ega bo'lishning afzalligini anglashgach, intellektual tadqiqotlarni qo'llab quvvatlaydigan muhitga asos solish uchun maktab kengashlari va ochiq forumlarda ishtirok etish, shuningdek ma'muriyat bilan hamkorlik qilishga erkin qiziqish bildirishlari mumkin.
4. **Fikrlar aspektlarining keng ko'lamliligi.** Fikrlashning cheklanmaganligi asosiy shartlaridan biri hisoblangan demokratik muhitda shaxslarning turli sohalarda erkin va asosli muhokamalar olib bora olishi ilm fan rivojiga katta hissa qo'shadi.
5. **Erkin nutq uchun imkoniyatlar eshigini ochish.** Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakat fuqarolari ilgari hayot tajribasiga tayangan holda nutqiy erkinlikka ehtiyojni unutib qo'yishadi va hatto zarur vaziyatda ham muloqotning nutq qilish, izohlash, tushuntirish kabi funksiyalarini bajarishdan o'zlarini olib qochishadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, akademik mustaqillik bugungi demokratik jamiyatni barpo etish uchun zaruriy qadamlardan biridir. Ilmga asoslangan va erkinlik bilan rag'batlantirilgan jamiyat barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Fuchs, R. F. (1963). Academic freedom. Its basic philosophy, function, and history. *Law and Contemporary Problems*, 28(3), 431–446.
2. Eisenberg, R. S. (1987). Academic freedom and academic values in sponsored research. *Tex. L. Rev.*, 66, 1363.
3. Casimir, H. B. G. (1971). Industries and academic freedom. *Research Policy*, 1(1), 3-8.
4. Audretsch, David & Fisch, Christian & Franzoni, Chiara & Montaz, Paul & Vismara, Silvio. (2023). *Academic Freedom and Innovation: A Research Note*.
5. Merton, R.K. (1973). *The Sociology of Science: Theoretical and Empirical Investigations*.
6. University of Chicago Press.
7. Merton, R.K. (1973). *The Sociology of Science: Theoretical and Empirical Investigations*. University of Chicago Press.
8. Polanyi, M. (1947). The Foundations of Academic Freedom. *The Lancet*, 249: 583-586
9. Schumpeter, J. (1942). Creative destruction. *Capitalism, socialism and democracy*, 825, 82-85
10. Smith, A. (1937). *The wealth of nations [1776]* (Vol. 11937).
11. Lott, L. Academic freedom growth and decline episodes. *High Educ* (2023).
12. Stone, G.R. (2015). A Brief History of Academic Freedom. In Bilgrami A., Cole J.R. (eds.) *Who's Afraid of Academic Freedom?* (pp. 1-9). Columbia University Press.
13. Sjur Bergan, Tony Gallagher and Ira Harkavy (2020) (eds.). *Academic freedom, institutional autonomy and the future of democracy* (Council of Europe Higher Education Series No. 24)
14. Kinzelbach, K., Lindberg, S. I., Pelke, L., & Spannagel, J. (2022). Academic freedom index - 2022 update (tech. rep.). Friedrich-Alexander-Universität Erlangen-Nürnberg (FAU) and Varieties of Democracy Institute. <https://doi.org/10.25593/opus4-fau-18612>
15. Kinzelbach, Katrin & Lindberg, Staffan & Lott, Lars & Spannagel, Janika. (2023). *Academic Freedom Index Update 2023*. 10.25593/opus4-fau-21630.
16. Ergashev, M. (2022). Mintaqalarning innovatsion rivojl. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish: Mintaqalarning innovatsion rivojlanishini statistik baholash. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 13(13).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tele.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.